

XITOIY TILIDAGI OVQATGA OID METAFORALARNING
MAZMUN DOIRALARI

Fayzullayeva Madina Qahramon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik

universiteti tayanch doktoranti Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998909057174

fayzulaevamadina@970gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot xitoy tilidagi ovqatga oid metaforalarning mazmuniy doiralari aniqlash va ularning kognitiv-madaniy asoslarini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Xitoy gastronomik metaforalari inson faoliyati, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar va psixologik holatlarni ifodalashda muhim konseptual vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda metaforik birliklar mazmuniga ko'ra bir necha semantik sohalarga — ta'm, ovqatlanish jarayoni, oziq-ovqat mahsulotlari, pishirish usullari, idish-tovoqlar va ovqatga oid harakatlar kabi doiralarga ajratilib o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *konseptual metafora, gastronomik metafora, manba domen, maqsad domen.*

Xitoy tilida oziq-ovqatga oid metaforalar til tizimining eng faol va mazmunan boy qatlamlaridan birini tashkil etadi. Chunki oziq-ovqat, ta'm, ovqatlanish jarayoni va pishirish amaliyoti insonning kundalik hayotidagi eng qadimiy va universal tajribalar sirasiga kiradi. Mazkur tajribalar asosida shakllangan metaforik birliklar nafaqat tilning semantik boyligini namoyon etadi, balki xitoy xalqining dunyoqarashi, qadriyatlari, tarixiy xotirasi va madaniy an'analarini ham aks ettiradi. Shu sababli gastronomik metaforalarning mazmun doiralari o'rganish ularning konseptual asoslarini, semantik rivojlanish mexanizmlarini hamda madaniy ahamiyatini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Gastronomik metaforalar tahlili ularni semantik tiplar bo'yicha ham guruhlash imkonini beradi. Bu tasnif metaforalarning qanday ma'nolarni ko'chirishini, qanday konseptual asosga ega ekanini va qaysi kognitiv jarayonlar orqali shakllanishini aniq ko'rsatadi. Xitoy tilidagi gastronomik metaforalar quyidagi asosiy semantik yo'nalishlarda mujassamlanadi:

1. Harakatga asoslangan metaforalar: "ovqatlanish", "ichish", "pishirish" kabi jarayonlar ma'nosi ko'chishi natijasida "taqdir", "mashaqqat", "tirikchilik" va "foйда" kabi abstrakt tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: 吃苦 *chī kǔ* — "qiyinchilik yemoq" (mashaqqatni boshdan kechirmoq), 喝西北风 *hē xīběifēng* — "shamol ichmoq" (och qolmoq). Bu metaforalar orqali ovqatlanish insonning tirikchiligi, daromad topishi, qiyinchilikka chidashi kabi ma'nolarga ko'chadi.

2. Taom sifati asosidagi metaforalar: Taomning pishganlik darajasi, mazasi yoki tarkibiy xususiyatlari metaforik ko'chishda "ishning sifati", "insonning fazilati" yoki "holati" kabi

abstrakt tushunchalarni ifodalash vositasiga aylanadi. Masalan: 夹生饭 *jiāshēng fàn* — yarim pishgan guruch (yarim tayyor, to'liq bajarilmagan ish), 硬骨头 *yìnggǔtóu* — qattiq suyak (bo'ysunmaydigan, “qiyin” odam). Bu shakldagi metaforalar baholovchi-majoziy xarakterga ega.

3. “Idish, taom, dori” obraziga asoslangan metaforalar: Ushbu turdagi metaforalar taom saqlanadigan idishlar, taom nomlari yoki dorivor vositalarning funksional xususiyatlaridan kelib chiqib, “ijtimoiy tizim”, “barqarorlik”, “himoya” va “yordam” kabi abstrakt tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: 铁饭碗 *tiě fǎnwǎn* — “temir guruch kosa” (barqaror, doimiy ish), 大锅饭 *dàguōfàn* — “katta qozon” (teng taqsimot tizimi). Bunday metaforalar orqali oziq-ovqatning moddiy shakli ijtimoiy strukturalar va siyosiy tizimlarni anglatishga xizmat qiladi.

4. “Ulush, taqsimot” asosidagi metaforalar: Bu turdagi metaforalar taomdan ulush olish, bo'lakka ega bo'lish yoki bir idishdan baham ko'rish kabi jarayonlardan kelib chiqib, “iqtisodiy foyda”, “resurslarni taqsimlash”, “manfaatlardan ulush olish” kabi iqtisodiy va ijtimoiy hodisalarni obrazli tarzda ifodalaydi. Masalan: 分一杯羹 *fēn yī bēi gēng* — sho'rvadan ulush olish (foydadan hissa olish). Bu metafora iqtisodiy raqobat, resurs taqsimoti va manfaatdorlik munosabatlarini ifodalaydi.

5. “Ta'm va sezgi” asosidagi metaforalar: Ovqatning ta'mi va sezgi tajribalariga tayangan bu metaforalar insonning hissiy holati, emotsional kechinmalari va ruhiy reaksiyalarini ifodalash uchun qo'llanadi. Taomning nordonligi, achchiqligi, shirinligi yoki sho'rliigi kabi sezgilardan foydalanib, kayfiyatdagi o'zgarishlar, ichki kechinmalar, “yoqimsiz” yoki “yoqimli” hislar obrazli tarzda ifodalanadi. Masalan: 心酸 *xīnsuān* — “yuragi nordi” (qayg'u, achinish), 甜头 *tiántou* — “shirin ta'm” (muvaqqatiyatning mazasi, foyda). Ta'm sezgisi — sezgi tajribasi bo'lgani sababli, hissiy holatlar bilan oson bog'lanadi.

Gastronomik metaforalar: mavhum tushunchalarni anglash uchun kognitiv ko'prik vazifasini bajaradi; psixologik va ijtimoiy holatlarni aniq va obrazli shaklda ifodalaydi; milliy madaniyatga xos qadriyatlar, urf-odatlar va dunyoqarashni aks ettiradi; inson hayotining turli jabhalarini kuchli emotsional rangda tasvirlaydi. Natijada, gastronomik metaforalar xitoy tilida nafaqat til birliklari, balki xalqning turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari, madaniy xotirasi va dunyoni idrok etish uslubini ifodalovchi muhim lingvokulturologik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lakoff G. *Metaphors We Live By* / George Lakoff, Mark Johnson. – Chicago : Chicago University Press, 1980. – 242 p.

2. Kövecses Z. *Metaphor: A Practical Introduction* / Zoltán Kövecses. – N.Y. : Oxford University Press, 2002. – 285 p.

3. 金爱情. 汉韩饮食惯用语的隐喻和转喻对比研究. - 浙江大学, 2018年. - 54 页.